
"YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!" SHIORI OSTIDA TOSHLOQ TUMANIDA "MAHALLADA DUV-DUV GAP" TADBIRI O'TKAZILDI

Tuman hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, Oila va xotin-qizlar bo'limi, tuman madaniyat bo'limi hamda tuman Axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda aholi o'rtasida shukronalik, vatanparvarlik hislarini yanada kuchaytirish, ularda milliy qadriyatlar va an'analar yanada mustahkamlash, farzandlar tarbiyasi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, fuqarolar o'rtasida ijtimoiy ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish maqsadida an'anaviy ma'rifiy, musiqiy tadbirlar o'tkaziladi.

Tumandagi "Zarkent" mahalla fuqarolar yig'inida aholi ishtirokida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Mahallada duv - duv gap" ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-musiqiy tadbir bayramona shukuh bilan o'tkazildi.

Tadbirda so'z olganlar davlatimiz rahbari tomonidan o'tkazilgan Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi yig'ilishida belgilangan vazifalarni aholi vakillariga yetkazdilar hamda mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar haqida fikr yuritdilar.

Tadbir doirasida qiziqarli viktorina o'yinlari o'tkazilib, unda faol qatnashganlarga sovg'a sifatida kitoblar topshirildi. San'at ustalari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga yanada bayramona kayfiyat bag'ishlandi.

2024-01-05 13:52:47